

## 2/2022 - SONLI BOSH PUDRAT SHARTNOMASI

Toshkent shahri

2022 yil 30 mart

"Xalq ta'limi sohasida loyiha hujjatlariga texnik topshiriqlarni ishlab chiqish va qurilish obyektlari sifatini monitoring qilish bo'yicha injiniring kompaniyasi" DUK, keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb ataladi, nomidan Nizom va 2021 yil 13 yanvardagi 2- sonli Ishonchnoma asosida harakatlanuvchi, Sirdaryo filial direktori Buribekov M.F., bir tomondan va "ENERGY ENGINEERING COMMUNICATION" MCHJ, keyingi o'rinlarda "Bosh pudratchi" deb ataladi, nomidan Ustav asosida harakatlanuvchi direktor Xaybullayev R.R., boshqa tomondan, birgalikda "tomonlar" va har biri alohida "tomon" deb ataladi, mazkur shartnomani (keyingi o'rinlarda "shartnoma" deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi va "O'zbekiston metallurgiya kombinati" AJ o'rtalarida tuzilgan 2021 yil \_\_\_- sentabrdagi Homiyik bitimi ijrosini ta'minlash maqsadida quyidagilar haqida tuzdilar:

### I. SHARTNOMA MAVZUSI

1.1. Bosh pudratchi ushbu shartnoma shartlariga muvofiq, "**Toshkent shahar Uchtepa tumani 107-sonli umumta'lim maktabini (Tashqi to'siq devor) mukammal ta'mirlash**" obyektini bo'yicha loyihada ko'zda tutilgan demontaj, qurilish-montaj ishlarini bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Bosh pudratchiga qurilish ishlarini bajarishga zarur shart-sharoitlarni yaratib beradi, ularni qabul qiladi va shartnomada belgilangan tartibda to'lovlarni amalga oshiradi.

### II. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLARNING QIYMATI

2.1. Ushbu shartnoma bo'yicha Bosh pudratchi tomonidan bajariladigan ishlarning qiymati xarid komissiyasining 2022-yil 30-martdagi 56616-sonli Bayoniga ko'ra 15% QQSni hisobga olgan holda 828 825 975 (Sakkiz yuz yigirma sakkiz million sakkiz yuz yigirma besh ming to'qqiz yuz etmish besh) so'mni tashkil etadi.

2.2. Ishlarning qiymati quyidagi hollarda qayta ko'rib chiqilishi mumkin:

- yengib bo'lmas kuch (fors-majior) ta'siridagi holatlar qurilish xarajatlarini oshishiga olib kelgan bo'lsa;

- texnik (loyiha) hujjatlarga Buyurtmachi tomonidan o'zgartirishlar kiritilganligi munosabati bilan ishlarning qiymati kamida o'n foizga oshsa.

2.3. Tegishli asoslar mavjud bo'lsa, ushbu o'zgarishlar Buyurtmachi va Bosh pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi. Bosh pudratchi tomonidan amalga oshirilgan ishlarning qiymati Buyurtmachining roziligisiz tomonlar o'rtasida kelishilgan qiymatdan oshib ketgan taqdirda, barcha moliyaviy xavflar Bosh pudratchi tomonidan amalga oshiriladi.

### III. BOSH PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI.

3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha Bosh pudratchi ushbu shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun ushbu shartnomaning 2.1-bandda ko'rsatilgan qiymat doirasida quyidagi majburiyatlarni o'z bo'yniga oladi:

- ushbu shartnomada nazarda tutilgan hajm va muddatlarda o'zi yoki u tomonidan jalb qilingan kuchlar yordamida barcha ishlarni bajarish hamda o'rnatilgan tartibda Buyurtmachiga topshirish;

- qurilish maydonchasiga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish va saqlashni amalga oshirish;
- qurilish maydonchasida vaqtinchalik tuzilmalarni (ofis, omborxonalar, quruvchilar uchun vaqtinchalik yashash, maxsus uskunalar uchun mashinalar, ishchi uchun oshxonalar va boshqalar) qurish;
- Buyurtmachini yordamchi pudratchilar bilan tuziladigan shartnoma to'g'risida shartnoma predmeti, yordamchi pudratchi nomi va manzili ko'rsatilgan holda 3 ish kuni ichida xabardor qilish;
- qurilish davrida foydalaniladigan elektr energiyasi, suv va kanalizatsiya hamda boshqa kommunal to'lovlar haqqini tegishli obyekt ma'muriyatiga yoki uning yuqori turuvchi tashkilotiga o'z vaqtida to'lab (qoplab) berish;
- qurilishning butun davrida obyektidagi ishchilar sonini 40 (qirq) tadan kam bo'lmashini ta'minlash;
- qurilish maydonchasida xavfsizlik texnikasi bo'yicha zarur tadbirlarni amalga oshirishni ta'minlash, o'z xodimlarini maxsus ish kiyimlari bilan ta'minlash, qurilish davrida atrof-muhitni, yashil joylar va er uchastkalarini muhofaza qilish choralarini ko'rish shuningdek, yoritishni o'rnatish;
- 3 (uch) kundan kam bo'lmagan muddatda Buyurtmachiga mas'ul konstruksiyalar va yashirin ishlarining topshirishga tayyorligi to'g'risida xabar berish;
- qurilish jarayonida loyiha-smeta hujjatlarida hisobga olinmagan ishlar aniqlanganda buyurtmachiga qo'shimcha ishlarni bajarish va qurilishning taxminiy qiymatini oshirish zarurligi to'g'risida yozma ravishda xabar berish;
- Buyurtmachiga barcha ijro hujjatlarini, bajarilgan ishlar va obyektning qurilishda ishlatilgan materiallar, inshootlar va uskunalarining sifatini laboratoriya sinovlari natijalarini taqdim etish;
- qurilish xatarlarini sug'urtalashni amalga oshirish va ushbu shartnoma imzolangan paytdan e'tiboran 4 kalendar kun ichida Buyurtmachiga sug'urta polisini taqdim etish;
- bajarilgan ishlarni qabul qilish to'g'risida dalolatnoma imzolangan kundan boshlab 10 kun muddatda mazkur shartnomaga muvofiq qurilish maydonchasini o'ziga tegishli bo'lgan qurilish mashinalari va uskunalar, transport vositalari, asboblari, asbob-uskunalar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar va vaqtinchalik inshootlardan ozod etilishini ta'minlash;
- qurilish uchun ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanish;
- Buyurtmachining birinchi talabi bo'yicha olingan mablag'lardan foydalanish yuzasidan moliyaviy hisobotni (tasdiqlovchi hujjatlar bilan birga) taqdim etish;
- qurilish maydonchasi xavfsizligini ta'minlash;
- ushbu shartnomada va O'zRning amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish.

3.2. Bosh pudratchi Buyurtmachiga barcha ishlarni o'z kuchlari yoki yordamchi pudratchilar tomonidan to'g'ri bajarilishi va obyektida bajarilishi lozim bo'lgan ishlarni mazkur shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda topshirish uchun to'liq mulkiy javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

3.3. Bosh pudratchi korxonada mehnat va ish haqi masalalari bo'yicha amaldagi normativ hujjatlar va majburiyatlarni bajarish, qurilish maydonchasida mehnat va dam olish uchun normal sharoit yaratish, jalb qilingan xodimlarga o'z vaqtida ish haqini ta'minlash uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

3.4. Bosh pudratchi tashkilotdagi ishlarni, xavfsizlik qoidalarini, mehnatni muhofaza qilish, yong'in xavfsizligini ta'minlash uchun o'zi tomonidan jalb qilingan xodimlarining texnologik va ishlab chiqarish intizomi buzilishini oldini olish bo'yicha tegishli tadbirlarni ko'rish uchun javobgardir.

#### IV. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI.

4.1. Ushbu shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi quyidagilarni o'z zimmasiga oladi:

- mazkur shartnoma imzolangan kundan e'tiboran uch kun muddatda mazkur obyekt qurilishi davrida va tugagunga qadar, ishlarni bajarish uchun mos bo'lgan qurilish maydonchasini dalolatnoma bo'yicha Bosh pudratchiga taqdim etish;

- Bosh pudratchiga ekspertizadan o'tgan to'liq loyiha-smeta hujjatlarini (chizmalar, dizayn, ishlar ro'yxati, resurslar smetasi va boshqalar) taqdim etish;

- ishlar bajarilishining borishi, Bosh pudratchi tomonidan qabul qilingan shartnoma majburiyatlari va mazkur shartnomada belgilangan boshqa vazifalarga rioya etilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini tashkil etish, tugallangan ishlarni Bosh pudratchidan qabul qilinishini ta'minlash;

- o'n kunlik muddatda Bosh pudratchining barcha yozma murojaatlarini ko'rib chiqish;

- ushbu shartnoma shartlariga muvofiq obyektidagi qurilish ishlarini moliyalashtirish;

- ushbu shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq bajarish.

4.2. Ushbu shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

- olingan mablag'lardan foydalanish yuzasidan Bosh pudratchidan moliyaviy hisobotni talab qilish;

- qurilish-montaj ishlarini olib borish jarayonida, agar zarur bo'lsa, obyektini davlat qabul komissiyasiga taqdim etishdan oldin yoki ushbu shartnoma muddatidan oldin bekor qilinganda obyektning bir qismini va toliq nazorat o'lchovidan o'tkazilishini talab qilish (Bosh pudratchi hisobidan).

- Bosh pudratchi tomonidan ushbu shartnoma shartlari buzilgan taqdirda, Bosh pudratchi manziliga yuborilgan yozma xabardan keyin va belgilangan tartibda ularni bartaraf etgunga qadar ushbu shartnomadan kelib chiqadigan o'z majburiyatlari bajarilishini to'xtatib turish;

- Bosh pudratchi tomonidan shartnoma shartlari buzilgan taqdirda, ish natijalari to'liq topshirilgunga qadar har qanday vaqtda, Bosh pudratchiga shartnomadan voz kechish to'g'risida xabarnoma yuborilgunga qadar u tomonidan bajarilgan ish hajmlariga mutanosib qiymatni to'lagan holda ishni bajarishni boshqa shaxsga topshirish;

- Bosh pudratchi ishida kamchiliklar aniqlangan taqdirda, unga ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun muddat belgilash va Bosh pudratchi tomonidan kamchiliklar ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etilmagan taqdirda kamchiliklarni bartaraf etishni Bosh pudratchi hisobidan boshqa shaxsga topshirish.

## V. ISHLARNI BAJARISH MUDDATI.

- 5.1. Shartnoma tomonlar uni imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi.
- 5.2. Bosh pudratchi ushbu shartnoma imzolangan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.
- 5.3. Ishlarni bajarish muddati shartnoma imzolangan kundan boshlab 15 kuni tashkil etadi. Bosh pudratchi shartnomada nazarda tutilgan barcha ishlar to'liq bajarib bo'linib, obyektни ishchi komissiyaning dalolatnomasi asosida Buyurtmachiga topshirilishi lozim.

## VI. TO'LOVLAR VA HISOB-KITOBLAR.

- 6.1. Buyurtmachi Bosh pudratchiga shartnoma imzolangan kundan boshlab 3 bank ish kuni ichida shartnoma umumiy qiymatining 30%i miqdorida avans mablag'lari o'tkazib berilishini ta'minlaydi.
- 6.2. Bajarilgan ishlar qiymati (qilingan xarajatlar) to'g'risidagi hisob-faktura ma'lumotnoma ikkala tomondan imzolangan kundan boshlab 35 bank ish kuni mobaynida bajarilgan ishlar qiymatining 95% miqdorida moliyalashtirish amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-noyabrdagi 699-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 17-bandiga muvofiq Bosh pudrat tashkilotining reyting bahosi "A" va "B" darajasidagi ishonchlilik toifasiga mansub bo'lgan taqdirda, obyekt davlat qabul komissiyasi tomonidan foydalanishga qabul qilib olingach bir oy ichida Buyurtmachi tomonidan kafolat muddati inobatga olinmasdan shartnoma qiymatining 5 foizi miqdoridagi mablag' bosh pudratchiga to'liq to'lab beriladi. Bunda qurilish ishlari hajmi o'lchov nazoratidan o'tkazilgach to'lov amalga oshiriladi.

Agar Bosh pudrat tashkilotining reyting bahosi "A" va "B" darajasidagi ishonchlilik toifasiga mansub bo'lmasa, obyekt davlat qabul komissiyasi tomonidan foydalanishga qabul qilinib belgilangan kafolat muddati tugagach, biroq joriy moliyaviy yil oxiridan kechiktirmay obyekt qiymatining 5 foizi miqdoridagi mablag' to'lovi amalga oshiriladi.

- 6.3. Ishchi komissiyasining dalolatnomasi asosida topshirilgunga qadar obyektning tasodifiy yo'q bo'lishi va/yoki zarar etkazilishi xavfi Bosh pudratchi zimmasida bo'ladi.

- 6.4. Buyurtmachi Bosh pudratchi tomonidan bajarilgan ish hajmlarini Bajarilgan ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasi va Bajarilgan ishlar qiymati (qilingan xarajatlar) to'g'risidagi hisob-faktura ma'lumotnoma qabul qilgan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida qabul qilishi, imzolashi va Bosh pudratchiga 1 nusxasini qaytarishi yoki ushbu muddat ichida Bajarilgan ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini imzolashdan bosh tortish haqida kamchiliklar ro'yxatini keltirgan holda asoslantirilgan yozma raddiya taqdim etadi.

Buyurtmachi barcha kamchiliklar to'liq bartaraf etilmagunga qadar Bajarilgan ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini imzolashdan bosh tortish huquqiga ega.

- 6.5. Bosh pudratchi Buyurtmachidan asosli bildirishnoma (raddiya) olingan vaqtdan boshlab 5 (besh) ish kuni mobaynida barcha kamchiliklarni bartaraf etish va Buyurtmachiga Bajarilgan ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini qayta taqdim etish majburiyatini oladi. Buyurtmachi qayta taqdim etilgan hujjatlarni tekshiradi va e'tirozlar bo'lmagan taqdirda bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlaydi.

## VII. ISHLARNI BAJARISH TARTIBI

- 7.1. Buyurtmachi qurilish maydonchasida o'zining vakili–texnik auditorni tayinlaydi, u Buyurtmachi nomidan bajarilgan ishlar sifatini texnik nazorat qiladi, shuningdek, Bosh pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va uskunalarning shartnoma shartlari va ishchi hujjatlarga muvofiqligini tekshiradi.
- 7.2. Texnik auditor barcha turdagi ishlarni qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilishi davomida hech qanday to'siqsiz tekshirish huquqiga ega.
- 7.3. Bosh pudratchi texnik auditorni ish uchun alohida xona bilan ta'minlaydi. Qurilish maydonchasida texnik auditor va Bosh pudratchi muntazam ravishda qurilish ishlarini amalga oshirishda yuzaga keladigan masalalarni muvofiqlashtirish va hal qilish bo'yicha uchrashuvlar o'tkazadi.
- 7.4. Bosh pudratchi obyektidagi ishlarni, mustaqil ravishda, ushbu shartnomaning VI bo'limida ko'rsatilgan muddatlar doirasida, o'z reja va jadvallariga muvofiq tashkil qiladi.
- 7.5. Bosh pudratchi obyektida amalga oshiriladigan ishlarni davlat arxitektura-qurilish nazorati organlari bilan kelishadi va qonun hujjatlariga muvofiq unga rioya qilish uchun javobgar bo'ladi.
- 7.6. Qurilish maydonchasida umumiy tartibni ta'minlash Bosh pudratchining vazifasidir.
- 7.7. Buyurtmachi keraksiz tuproqni (axlat) va qurilish qoldiqlarini saqlash uchun joy ajratishni ta'minlaydi.
- 7.8. Ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni o'rnatilgan tartibda vaqtinchalik ulash Bosh pudratchi tomonidan amalga oshiriladi.
- 7.9. Loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq qurilish ishlarini bajarish uchun zarur bo'lgan qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini, muhandislik uskunalarini etkazib berish Bosh pudratchi tomonidan tashkil etiladi.
- 7.10. Bosh pudratchi qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish uchun foydalanadigan inshootlar va tizimlar loyiha hujjatlarida, texnik reglamentlarda yoki standartlarda ko'rsatilgan spetsifikatsiyalar sifatiga mos kelishini va ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlar, texnik pasportlar yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini ta'minlaydi.
- 7.11. Bosh pudratchi O'zbekiston Respublikasi qurilish vazirligi huzuridagi qurilish sohasida nazorat bo'yicha Inspeksiya va Buyurtmachini alohida konstruksiyalar va yopiq ishlarni qabul qilinishi boshlangunga qadar 3 kun oldin yozma ravishda xabardor qiladi.
- 7.12. Qabul qilinayotgan konstruksiyalar va ishlarning tayyorligi O'zbekiston Respublikasi qurilish vazirligi huzuridagi qurilish sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan kelishilgan taqdirda Buyurtmachi va Bosh pudratchi tomonidan mas'uliyatli konstruksiyalarni oraliq qabul qilish va yashirin ishlarni tekshirish dalolatnomalarini imzolash bilan tasdiqlanadi.
- 7.13. Bosh pudratchi keyingi ishlarni faqat ishlab chiqarish jurnaliga kiritilgan Buyurtmachining yozma roziligidan keyin boshlaydi.
- 7.14. Agar yopiq ishlar Buyurtmachining rozilgisiz amalga oshirilsa yoki u bu haqda ma'lumotga ega bo'lmasa yoki kechiktirilsa, uning talabiga binoan Bosh pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmalariga binoan bajarilgan yopiq ishlarni o'z hisobidan ochishi va keyin ularni qayta tiklashi shart.

7.15. Agar Buyurtmachi Bosh pudratchi yoki yordamchi pudratchilar tomonidan sifatsiz bajarilgan ishlarni aniqlasa, unda Bosh pudratchi o'z kuchi bilan va qurilish qiymatini oshirmagan holda kelishilgan muddatda, lekin ogohlantirilgandan so'ng 10 kalendar kunidan kechiktirmasdan, ushbu ishlarni tegishli sifat bilan bajarilishini ta'minlashi shart.

7.16. Bosh pudratchi qurilish maydonchasini va unga qo'shni bo'lgan hudud chizig'ini, shu jumladan yo'l va yo'laklar uchastkalarini toza-ozodalikda saqlash, qurilish davrida qurilishdan chiqqan chiqindilarni Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan maxsus joylarga olib chiqilishini ta'minlaydi.

7.17. Ish boshlangan paytdan boshlab tugagunga qadar Bosh pudratchi ishlarni bajarish jurnalini yuritadi. Jurnalda ishlarni bajarishning butun jarayoni, Buyurtmachi va Bosh pudratchi o'rtasidagi munosabatlarda muhim bo'lgan faktlar va holatlar aks ettiriladi (ishlarning boshlanishi va tugash sanasi, asbob-uskunalar va xizmatlar kelib tushishi, ishlar qabul qilinishi, sinovlar o'tkazilishi, materiallarni o'z vaqtida yetkazib berish bilan bog'liq kechikishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi va qurilishning yakuniy muddatiga ta'sir etuvchi boshqa omillar).

7.18. Agar Buyurtmachi ishning borishi va sifati yoki Bosh pudratchining yozuvlari bilan kelishmasa, u o'z fikrini ishlarni bajarish jurnalida bayon qilishi mumkin.

7.19. Bosh pudratchi 3 kunlik muddat ichida Buyurtmachi tomonidan ishlarni bajarish jurnalida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'rishga majbur.

7.20. Bosh pudratchi Buyurtmachi bilan kelishilgan dizayn yechimlariga muvofiq qurilish va ta'mirlash (kosmetik) ishlarini tashkil etishga majbur.

## VIII. ISHLAR MUHOFAZASI

8.1. Bosh pudratchi qurilish ishlari boshlanishidan tugallangunga qadar va qurilishi tugallangan obyektни Buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingunga qadar yopiq qurilish maydonchasi hududida materiallar, uskunalar, qurilish texnikasi va boshqa mol-mulkni to'g'ri himoya qilishni ta'minlaydi.

8.2. Qurilib bitqazilgan bino va inshootlar, shuningdek, materiallar, uskunalar va boshqa mol-mulkning xavfsizligini ta'minlash uchun obyektни dalalotnoma asosida foydalanishga qabul qilib olingandan so'ng Buyurtmachi mas'uldir.

## IX. FAVQULODDA VAZIYATLAR (FORS-MAJOR).

9.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar, agar u tabiiy hodisalar, harbiy harakatlar va boshqa yengib bo'lmay kuchlarning natijasi bo'lsa va bu holatlar ushbu shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa.

Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmay kuch ta'siridagi holatlar hamda ularning oqibatlari bilan bog'liq holatlar amalda bo'lgan muddatga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

9.2. Agar favqulodda vaziyat yoki ularning oqibatlari bir oydan ortiq davom etsa, Bosh pudratchi va Buyurtmachi qurilishni davom ettirish yoki uni saqlab turish (konservatsiya) uchun qanday choralar ko'rish kerakligini muhokama qiladi.

9.3. Bunday holatda tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, har bir tomon shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqli.

## X. QURILISH TUGALLANGAN OBYEKTNI QABUL QILISH.

10.1. Qurilish tugallangan obyektни qabul qilib olish tomonlarning ushbu shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlari bajarilgandan so'ng, shartnoma imzolangan sanada amalda bo'lgan tartib asosida, shuningdek, qurilish tugallangan obyektlarni foydalanishga qabul qilish bo'yicha belgilangan qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi.

10.2. Buyurtmachi Bosh pudratchining obyektда shartnomada nazarda tutilgan barcha ishlar to'liq yakunlanib, u foydalanishga topshirishga tayyorligi to'g'risidagi yozma xabarnomasini olgan kundan boshlab 7 ish kuni mobaynida tomonlar obyektни qabul qilish jarayoniga kirishadilar.

10.3. Bosh pudratchidan Obyekt foydalanishga topshirishga tayyorligi to'g'risida xabarnoma olgandan so'ng, Buyurtmachi obyektда nazorat o'lchovi o'tkazilishini tashkil etish huquqiga ega.

10.4. Bosh pudratchi obyekt foydalanishga topshirishga tayyorligi to'g'risidagi yozma xabarnoma bilan birga buyurtmachiga belgilangan tarkibda ijro hujjatlarini ikki nusxasini yuboradi. Bosh pudratchi taqdim etilgan ijro hujjatlari amalda bajarilgan ish hajmlariga to'liq mos kelishini yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

10.5. Buyurtmachi Bosh pudratchidan to'liq ijro hujjatlarini olganidan so'ng, obyektни davlat qabul komissiyasiga taqdim etilishi uchun tayyorligini aniqlash uchun ishchi komissiyani tayinlaydi va uning tarkibi haqida Bosh pudratchini xabardor qiladi.

10.6. Loyiha va me'yoriy hujjatlar talablaridan chetga chiqishlar aniqlanganda, ishchi komissiya obyektни foydalanishga qabul qilish uchun to'liq tayyor emasligi to'g'risida xulosa chiqaradi va unga aniqlangan nuqsonlar ro'yxatini ilova qiladi. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishchi komissiyaning xulosasi yuqorida aytib o'tilgan nuqsonlar ro'yxati bilan birgalikda (agar mavjud bo'lsa) Bosh pudratchiga bartaraf etish uchun muddat belgilagan holda taqdim etiladi.

10.7. Bosh pudratchi Ishchi komissiya dalolatnomasini o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilishi, komissiya a'zolari tomonidan imzolanishi hamda to'liq rasmiylashtirilgan 5 asl nusxadagi dalolatnomalarni Buyurtmachiga topshirish uchun mas'uldir.

## XI. KAFOLATLAR

11.1. Bosh pudratchi quyidagilarga kafolat beradi:

- ushbu shartnoma shartlarida belgilangan barcha ishlarni to'liq va o'z muddatida bajarish;
- loyiha hujjatlariga muvofiq barcha ishlarni sifatli, qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlarga muvofiq holda bajarish;
- qurilish uchun foydalaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlarning sifati, ularning loyiha hujjatlarida, texnik reglament va standartlarda ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga muvofiqligi;
- ishlarni qabul qilishda va obyektning kafolat muddati davomida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf etish;
- obyektда o'rnatilgan muhandislik tizimlari va uskunalarining foydalanishga yaroqliligini (ularning kafolat muddati davomida).

11.2. Obyekt va uning tarkibiga kiruvchi muhandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallar va ishlarning kafolat muddati davlat qabul komissiyasi dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab 12 oy davomida belgilanadi.

11.3. Agar obyektning kafolat muddati davomida bartaraf etilgunga qadar obyektidan foydalanishni davom ettirishga yo'l qo'ymaydigan nuqsonlar aniqlansa, ular uchun kafolat muddati mos ravishda nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Kamchiliklarni bartaraf etish Bosh pudratchi tomonidan o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Nuqsonlarning mavjudligi va ularni bartaraf etish muddati Bosh pudratchi va Buyurtmachi o'rtasida tuziladigan ikki tomonlama dalolatnomada belgilanadi. Bosh pudratchi nuqsonlarni aniqlash uchun hozir bo'magan taqdirda, nuqson dalolatnomasi uning ishtirokisiz, obyektidan foydalanuvchi (balansda saqlovchi) tashkilot hamda Buyurtmachi vakillari ishtirokidagi dalolatnomada belgilanadi hamda kamchiliklarni aniq muddatlarda bartaraf etish yuzasidan yozma talabnoma Bosh pudratchining manziliga pochta xizmati orqali yuboriladi yoki uning vakiliga topshiriladi.

Ikki tomonlama tuzilgan dalolatnomada yoki xabarnomada nazarda tutilgan muddatlarda yuzaga kelgan nuqsonlar Bosh pudratchi tomonidan bartaraf etilmagan taqdirda, Buyurtmachi mazkur nuqsonlarni bartaraf etish yuzasidan boshqa pudrat tashkiloti bilan o'rnatilgan tartibda shartnoma tuzish hamda amalda bartaraf etilgan nuqsonlar qiymatini Bosh pudratchidan undirishga haqli.

## XII. SHARTNOMANI BEKOR QILISH.

12.1. Buyurtmachi quyidagi hollarda shartnomani bir tomonlama sudga murojaat qilmagan holda bekor qilishga haqlidir:

- shartnoma kuchga kirganidan keyin Bosh pudratchi qurilish-ta'mirlash ishlarini Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra 10 kundan ortiq vaqt davomida boshlamay tursa;
- Bosh pudratchi tomonidan amalga oshirilayotgan ish sur'ati pastligi (masalan, ishchilar soning ozligi) obyektini belgilangan muddatda foydalanishga topshirish imkoniyatini istisno etadi deb hisoblashga asoslar bo'lganda;
- Bosh pudratchi tomonidan qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlar sifatini pasayishga olib keladigan shartnoma shartlarini buzish;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha.

12.2. Bosh pudratchi quyidagi hollarda shartnomani bir tomonlama sudga murojaat qilmagan holda bekor qilishga haqli:

- Buyurtmachi tomonidan Bosh pudratchi nazorati ostida bo'lmagan sabablarga ko'ra ishlarni bajarishini bir oydan ortiq muddatga to'xtatib turish;
- Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirishning asossiz kechiktirilishi;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha.

12.3. Buyurtmachining va Bosh pudratchining qo'shma qarori bo'yicha shartnoma bekor qilinganda, tugallanmagan qurilish bir oy muddatda Bosh pudratchiga o'tkaziladi va nazorat o'lchovi natijalari bo'yicha bajarilgan ishlarning qiymati Bosh pudratchiga to'lab beriladi yoki undan undirib olinadi.

12.4. Ushbu shartnomani bir tomonlama sudga murojaat qilmagan holda bekor qilishni boshlaydigan tomon bekor qilinadigan sanadan 10 kalendar kun oldin boshqa tomonga yozma xabarnoma yuboradi.



12.5. Shartnoma muddatidan oldin bekor qilinganida, aybdor tomon boshqa tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan yo'qotilgan foydani qoplaydi.

12.6. Shartnomani bajarishdan bir tomonlama rad etishga yo'l qo'yilmaydi, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida yoki ushbu shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

### XIII. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

13.1. Tomonlarning biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

- boshqa tomonga etkazilgan zararni qoplaydi;

-O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida va ushbu shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqa javobgarlikka tortiladi.

13.2. Agar Buyurtmachining aybi bilan bajarilgan ishlar uchun to'lovlar kechiktirilsa, u Bosh pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov miqdorining 0,5 foizi miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lov miqdorining 20 foizidan ko'p bo'lmagan penyani to'laydi.

13.3. Ishni o'z vaqtida tugatish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganlik uchun Bosh pudratchi Buyurtmachiga har bir kechiktirilgan kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,5% miqdorida penya to'laydi, lekin penyaning umumiy miqdori bajarilmay qolgan ishlar qiymatining 20 foizidan oshmasligi kerak.

13.4. Buyurtmachi yoki ishchi komissiya tomonidan aniqlangan nuqsonlar va kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etmaganlik uchun Bosh pudratchi Buyurtmachiga kechiktirilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0,2% miqdorida penya to'laydi, biroq penyaning umumiy miqdori sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak. Sifatsiz bajarilgan ishlarning qiymatini hisoblash Buyurtmachi tomonidan loyiha-smeta hujjatlari va/yoki bajarilgan ishlar hujjatlari (2-shakl) asosida amalga oshiriladi.

13.5. Penya va/yoki jarimani to'lash Bosh pudratchini o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi va Bosh pudratchi ishlarni bajarish va xizmat ko'rsatishni kechiktirish oqibatida etkazilgan zararni qoplaydi.

13.6. Agar bajarilgan ishlar belgilangan standartlar, qurilish me'yorlari va qoidalari, ish hujjatlari sifatiga mos kelmasa, Buyurtmachi bajarilgan ishlar hajmini qabul qilish va to'lashni rad etishga haqli.

13.7. Majburiyatlarni kechiktirish yoki boshqacha nomaqbul bajarish uchun jarimani to'lash taraflarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi. Buyurtmachi hisoblangan penya va jarima miqdorini Bosh pudratchi tomonidan bajarilgan ishlarning qiymatini to'lash uchun mo'ljallangan pul mablag'lari hisobidan ushlab qolishga haqli.

### XIV. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI.

14.5. Tomonlar tomonidan shartnoma ijrosi va bekor qilinishida yuzaga keladigan, shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda hal etilmagan bahsli masalalar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

## XV. MAXSUS SHARTLAR

15.1. Ushbu shartnoma imzolanganidan so'ng ushbu shartnomaga taalluqli barcha oldingi yozma va og'zaki kelishuvlar, yozishmalar, tomonlar o'rtasida kelishuvlar o'z kuchini yo'qotadi.

15.2. Bosh pudratchi ishchi hujjatlarni sotish yoki uchunchi shaxslarga topshirish huquqiga ega emas, yordamchi pudratchilar bundan mustasno.

15.3. Ushbu shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan bo'lsa, tomonlar tomonidan imzolangan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

15.4. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollarda O'zRning amaldagi qonun hujjatlari normalariga amal qilinadi.

15.5. Ushbu shartnoma imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrga qadar amal qiladi.

15.6. Ushbu shartnoma bir xil qonuniy kuchga ega bo'lgan 3 nusxada tuziladi. Buyurtmachi uchun ikkita nusxa va Bosh pudratchi uchun bitta nusxa.

## XVI. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA POCHTA MANZILLARI:

BUYURTMACHI:	BOSH PUDRATCHI:
<p><b>“Xalq ta’limi soxasida injiniring kompaniyasi” DUK</b> Manzil: Toshkent Sh., Shayxontohur tumani Navoiy ko'chasi, 2A uy. H/r: 2021 0000 4009 3165 5012 AT “Universal bank” Toshkent filiali Bank kodi: 00996 STIR: 305795297 OKED: 96090</p> <p><b>Bosh direktor</b></p> <p> <b>Usmanov A.I.</b></p>	<p><b>"ENERGY ENGINEERING COMMUNICATION" MCHJ</b> Manzil: Toshkent sh. Yunusobod tumani. A.Temur ko'chasi S-4 1-uy H/r 20208000700257315001 MFO: 01071 "Orient Finans Bank " INN: 302 711 047 OKED: 43299 Tel: 97 177 81 27</p> <p><b>Direktor</b></p> <p> <b>Xaybullayev R.R.</b></p>

